

IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA QALMOQLAR DEPORTATSIYA QILINISHI VA UNING OQIBATLARI

Nurullayev Jaxongir Abdumalikovich

Elektron pochta: j.nurullayev@mail.ru

Annotatsiya: Kavkaz xalqlaridan bo'lgan qalmoq xalqining ikkinchi jahon urushi davrida turli ayblovlar bilan turgan yerlaridan deportatsiya qilinishi sabablari va oqibatlari yoritilgan. Muallif qalmoqlarning ikkinchi jahon urushida deportatsiya qilinishi sabablarini va oqibatlarini yoritishda nisbatan yangi ma'lumotlarga tayangan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida butun bir xalqlarning tub yashash yeridan surgun qilinishida alohida guruhlar jinoyatlarining asos qilib ko'rsatilishi salbiy oqibatlarini ta'kidlab o'tgan. Qalmoqlarni surgun qilishda milliy kelishmovchiliklarni tartibga solishdan tashqari, qalmoqlarning 110-otliq diviziyaning taslim bo'lib, ularning asirlikka o'tib ketishidagi harakati xoinlik deya ko'rsatildi. 1943-yil 27-28-dekabr kunlari SSSR Oliy Kengash Prezidiumining "Qalmoq ASSR tugatilishi va RSFSR tarkibidagi Astraxan viloyati tuzilishi to'g'risida"gi qarorni qabul qildi. Undan tashqari, SNKning qalmoqlarni Oltoy va Krasnoyarsk viloyati, Omsk va Novosibirsk viloyatlariga badarg'a qilish borasida tegishli qarorlari qabul qilindi.

Muallif Qalmoq ASSRning tugatilishi va RSFSR tarkibida Astraxan viloyatiga aylantirilishi bu butun bir xalqning manfaatlariga zid ekanligini ta'kidlab, bu o'z davrida ma'muriy buyruqbozlik va bir xalqning manfaatlarini mensimaslik ekanligini aytib o'tadi. Bu ma'lumotlar 2000-yillardan keyin ancha ochiqqlanib, muallif aynan shu yangi ma'lumotlarga tayanishga harakat qilgan.

Kalit so'zlar: Qalmoq, "Uluslar", O.I.Gorodovikov, Astraxan, "Qora yerlar", A.M.Leontyev, NKVD, 110-qalmoq otliq diviziyasi, SNK.

Ikkinchi jahon urushi sovetlarning alohida xalqlarga bo'lgan rejalarini amalga oshirish uchun qulay fursat yuzaga keldi. Ikkinchi jahon urushining dastlabki yillaridanoq SSSRning boshqa hudud xalqlari kabi qalmoq xalqi ham vatan himoyasiga turdi. 1941-yil 22-iyundagi kutilmagan fashistlarning SSSRga hujumi ro'y berdi. Qalmoq viloyat komiteti urushning birinchi oyidagi vaziyatni hisobga olib, 1941-yil 30-iyuldagi hisobotga ko'ra, qalmoqlarda birorta harbiy xizmatdan bo'yin tovlash ro'y bermagan. Aksincha, frontga birinchilardan bo'lib yozilish uchun 2 mingdan ortiq qalmoq xalqi ariza topshirganligini ko'rish mumkin bo'ldi. 1941-yil noyabrida SSSR davlat mudofaa komiteti tomonidan Shimoliy-Kavkaz harbiy okrugi doirasida milliy otliq bo'linma yaratilishi, xususan Qalmoq ASSRda ham shunday bo'linmalardan ikkitasini tashkil qilishga qaror qabul qilindi. Qizil Armiya general-polkovnigi O.I.Gorodovikov 1941-yil 16-avgustda Shimoliy Kavkaz viloyat komiteti yig'ilishida otliq qo'shin tuzilishi zarurati ta'kidlab o'tilgandi.

Keyingi davrlarda respublikaning moddiy ahvolidan kelib chiqqan holda ikki harbiy diviziya shakllantirish borasida qaror qabul qilindi. 110-qalmoq otliq diviziyasi 1942-yil

20-aprelda SSSR Narkomat budjeti hisobidan 4600 nafar askar (ularning 63%i qalmoqlar edi), 4744 ot jalb qilindi. Diviziyalar boshliqlarning eslashicha o'sha davrda jalb qilingan aholining harbiy tayyorgarligi yo'q edi. Undan tashqari ular rus tilida ham erkin so'zlasha olishmasdi.¹⁹

Umuman olganda aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, 1939-yil SSSR aholisi orasida qalmoqlarning umumiy soni 134 402 nafarga yetgandi. Qalmoq ASSRdan tashqari qalmoqlar Stalingrad viloyatida va Stavropol vodiysida yashardilar. Ularning turmush tarzida chorvachilik ustuvor ahamiyat kasb etardi.

1942-yil avgust boshlarida Qalmoq ASSR uluslari (tumanlari)ning katta qismi va poytaxti Elista hududi fashistlar tomonidan bosib olindi. Aholining 25 %i Volga bo'ylari va egallanmagan uluslar hududlariga ko'chib o'tishdi. Ularning hududlari 1943-yilning boshlarida ozod etildi.

Qalmoqlarni surgun qilishda milliy kelishmovchiliklarni tartibga solishdan tashqari, qalmoqlarning 110-otliq diviziyaning taslim bo'lib, ularning asirlikka o'tib ketishidagi harakati xoinlik deya ko'rsatildi. 1943-yil 27-28-dekabr kunlari SSSR Oliy Kengash Prezidiumining "Qalmoq ASSR tugatilishi va RSFSR tarkibidagi Astraxan viloyati tuzilishi to'g'risida"gi qarorni qabul qildi. Undan tashqari, SNKning qalmoqlarni Oltoy va Krasnoyarsk viloyati, Omsk va Novosibirsk viloyatlariga badarg'a qilish borasida tegishli qarorlari qabul qilindi.

Qalmoqlar surgun qilinishiga: "Vatanga xoinlik; Qizil Armiyaga qarshi nemislar tomonidan tuzilgan harbiy guruhlar safida xizmat qilganligi; halol sovet fuqarolarini nemislar qo'liga berganligi; Rossiya va Ukrainadan haydab kelingan chorvalarni nemislar qo'liga yetkazganligi; Qizil Armiya tomonidan fashistlar qalmoqlar hududidan quvib chiqarilganligidan so'ng, sovet hukumatiga qarshilik ko'rsatadigan jangovar guruhlar tuzganligi; fashistlar yo'q qilgan xo'jaliklardagi sovetlar olib borayotgan tiklash ishlariga faol qarshilik ko'rsatganligi; kolxozlarda yashovchilarga hujumlar va tinch aholiga tajovuz qilganligi" sabab etib ko'rsatildi.

Qalmoqlarni deportatsiya qilish bo'yicha yirik ko'lamli operatsiyaning o'zi 1943-yil 28-29-dekabrda o'tkazildi. Operatsiya "Uluslar" nomini oldi, unda NKVDning 2975 nafar ofitserlari ishtirok qildi. Deportatsiya jarayonlarini tashkillashtirishda NKVDning 3-motoo'qchi bo'linmasi ham qatnashgan bo'lib, e'tiborlisi shunda ediki, ular oldinroq qorachoylarni deportatsiya qilish jarayonlarida ham ishtirok etishgandi. Operatsiyaning umumiy harakatlarini boshqarish UNKVDning Ivanov viloyati bo'limi boshlig'i general-mayor Markeyev qo'lida edi.

Deportatsiya jarayonlarining dastlabki bosqichida 91 919 qalmoq ko'chirildi, ularning ko'pchiligi qariyalar va bolalar edi. 1944-yil yanvarida ko'chirilganlar safiga 1014 nafar qalmoq qo'shildi. Ko'chirilgan hududlar joylashuvi bo'yicha ular deyarli teng miqdorda joylashtirildi. 1944-yil yanvar oyida ma'lumotlarga ko'ra, Omsk viloyatiga – 24 325 nafar, Krasnoyarsk viloyatiga – 21 164 nafar, Oltoy viloyatiga – 20 858 nafar va

¹⁹ Максимов К.Н. – Трагедия Народа: Репрессии и Калмыкии. 1918-1940 годы. М.: 2004. С.252.

Novosibirsk viloyatiga – 18 333 nafar qalmoqlar ko‘chirildi. Ko‘chirish jarayonlari qishning o‘rtasida o‘tkazilganligi sabab yo‘ldagi o‘lim holatlari ko‘paya bordi.²⁰

“Jazolangan xalqlar” orasida qalmoqlar ko‘chirilish hududi jihatidan eng iqlimi noqulay hududlarga joylashtirildi, xususan, Sibir va Qozog‘iston hududlarining qishdagi iqlimi kavkazliklar uchun katta noqulayliklar yuzaga keltirdi. Omskka ko‘chirilgan qalmoqlarning yarmidan ortig‘i hududning shimoliy qismiga – Yamalo-Nenetsk, Xanti-Mansiysk va Tobol okruglariga joylashtirildi. Qalmoqlarning boshqa deportatsiya qilingan xalqlardan yana bir farqi – bu ularning katta hududga tarqatib yuborilganligi edi. Qalmoqlar Qozog‘istondan Saxalingacha bo‘lgan yirik hududga bir-biridan uzoq bo‘lgan viloyatlarga joylashtirildi. Ko‘chirilganlarning yashash sharoitlari ham talabga javob bermasdi. Sanitariya holati ham achinarli ahvolda edi, buning natijasida bir necha bor epidemiyalar avj oldi. Ulardan eng og‘iri sil kasalligi epidemiyasi bo‘ldi. Oqibatda, deportatsiyaga uchragan xalqlar orasida qalmoqlarning o‘lim darajasi eng yuqorilaridan biri bo‘lib qoldi.²¹

1944-yil qalmoqlarning deportatsiyasi davom etdi, bu Qalmoq ASSR hududida yashamaydigan qalmoqlar hisobiga to‘g‘ri keldi. Ularni 1944-yil martida Rostov viloyatiga to‘plashdi (ulardan 2536 nafari 1945-yil 25-martida Omsk viloyatiga ko‘chirildi), aprelda Stalingrad viloyatiga to‘plash jarayoni ham amalga oshirildi (ulardan 1178 nafari Sverdlovsk viloyatiga 1944-yil 2-4-iyun kunlari ko‘chirildi).

O‘zi qalmoqlarning surgun qilinishiga asosiy sabablaridan biri etib baholangan 110-qalmoq otliq diviziyasi haqida gapiradigan bo‘lsak, u haqida birmuncha salbiy fikrlar mavjud.

O‘sha davr rahbarlarining qaror qabul qilishidagi mantiqni tushunish qiyin, chunki janglarda qahramonlik ko‘rsatib davlat mukofotlariga erishganlar ham surgun qilingan. Masalan, qahramonligi va jasurligi uchun katta serjant Pyurvyu Jalxayevga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni, O.G.Boldirevaga – Lenin ordeni (unga 1944-yil 29-noyabr Shiroklagda orden topshirilgandi) berildi. Shu bilan birga ular SSSR NKVD tomonidan axloq tuzatish lagerlariga badarg‘a qilinishgandi.

1943-yil 28-31-dekabrda qalmoqlarning asosiy qismi Qalmoq ASSR va Rostov viloyatida yashovchilari surgun qilindi. 1944-yil marti oxirida ham Rostov viloyatining alohida hududlarida yashovchi qalmoqlar ko‘chirildi, 1944-yil iyunda Stalingrad va Stavropoldan qalmoqlarni ko‘chirishlar amalga oshirildi. Shu tariqa, 1944-yil o‘rtalariga kelib 99 252 nafar qalmoqlar tub yashash yerlaridan o‘zga hududlarga majburiy ko‘chirib bo‘lindi. Ularning safini harbiy xizmatdan chetlashtirilganlar to‘ldirdi va umumiy 110 ming qalmoq surgun qilindi.

Uch kunlik yo‘lda qalmoqlarning 2 % ga yaqini (1600 dan ortiq odam) nobud bo‘ldi. Yo‘ldagi og‘ir sharoit va qishning o‘rtasida o‘tkazilgan deportatsiya vaqtida og‘ir kasalliklar orttirgan qalmoqlar ham qiyin ahvolda edi. Buning natijasida, 1944-yilning boshlarida Novosibirskka ko‘chirilgan qalmoqlarning 1510 nafari yoki shu hududga

²⁰ Очиллов У.Б. – Военные мобилизации в Калмыцкой АССР. Элиста.: 2001. С.148.

²¹ Яковлев А.Н. – Омут памяти. М.: 2001. С.189.

ko'chirilganlarning 9,2 %i olamdan o'tdi. 1945-yilgi holatga ko'ra, maxsus ko'chirilganlarning 83 688 nafari omon qoldi. Ko'chirish jarayoni boshlangan davrdan boshlab 15 ming (15-16 %) qalmoq hayotdan ko'z yumdi.

1945-yilgi ko'chirish jarayonlaridagi og'ir sharoit tufayli 3735 nafar qalmoq bolalari (9,3 %) nobud bo'lishdi. Shu davrdagi qalmoqlarda tug'ilish 351 nafar bolani tashkil etdi, bu esa o'lim holatiga nisbatan 11 baravar farq degani. 1943-yil dekabrda 1950-yil boshlarigacha qalmoqlarning soni yana 30-35 ming nafarga kamayib, qalmoqlar soni 81 475 nafarni tashkil etdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Максимов К.Н. – Трагедия Народа: Репрессии и Калмыкии. 1918-1940 годы. М.: 2004.
2. Яковлев А.Н. – Омут памяти. М.: 2001.
3. Очилов У.Б. – Военные мобилизации в Калмыцкой АССР. Элиста.: 2001.
4. Поляков Ю.А. – Историческая наука: Люди и проблемы. М.: 1999.
5. Бакаев П.Д. – О трагедии в истории калмыцкого народа. Элиста.: 2003.
6. Земков В.Н. – Спецпоселенцы в СССР, 1930-1960. М.: 2003.
7. Стецковский Ю.И. – История советских репрессий. 1917-1995 гг. М.:1997.

